



_____ hokimligi
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ maktabgacha va
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
tasviriyl san'at fani o'qituvchisi
_____ning
20__-20__-o'quv yiliga 5-sinflar uchun
IV chorak

DARS

ISHLANMALARI

“TASDIQLAYMAN”

O‘IBDO‘ _____

**20__-20__-o‘quv yili uchun tuzilgan tasviriy san’at fanidan IV chorak
taqvimiy mavzu rejasi**

№	Mavzu nomi	Soat	Sana	Izoh
IV chorak				
1.	O‘zbekiston rassomlari	1		
2.	Naqsh namunasidan nusxa ko‘chirish	1		
3.	SketchBook dasturi	1		
4.	SketchBook dasturi asosida tasvir chizish	1		
5.	Nazorat ishi – 5	1		
6.	Sharqona me‘morchilik san’ati. Zamonaviy me‘morchilik san’ati	1		
7.	Nazorat ishi – 6. Plenerda rasm ishlash.	1		
8.	Badiiy bezak grafikasi	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: O‘zbekiston rassomlari

Ta’limiy maqsad: tasviriy san’atning ifodaviy vositalari haqida umumiy tushuncha berish.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarga ahloqiy tarbiya berish va tasviriy san’atga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otish, tasviriy san’atning ifodaviy vositalari sifatida rangtasvirda rang, surtma, chiziq, rang dog‘lari, rangdor va yorug‘lik kontrastlari haqida tushuncha berish, grafikada chiziq, shtrix, kontur, tus, oq-qora dog‘lardan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: chizish ko‘nikmava malakasini rivojlantirish, o‘quvchilarning badiiy ijodiy qobiliyatlari, badiiy - estetik didlarini o‘stirish, tasviriy malakalarini va mantiqiy fikrlash qobiliyatini oshirish.

Mashg‘ulot metodi: tushuntirish, savol-javob, suhbat, amaliy, yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

Jihozi: darslik, tasviriy san’at mavzuga doir ko‘rgazmalar, rasmlar, qalamlar, proyektor, tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

yurish-turishda milliy va madaniy me’yorlarga amal qilish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi:

shaxsiy, iqtisodiy munosabatlarda hisob-kitob bilan ish yuritishni bilish.

I. Tashkiliy qism: dars uchun yetarli miqdorda zarur ashyolar hozirlanadi.

Doskaga dars mavzusi va tegishli ma’lumotlar yozib qo‘yiladi.

II. Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

Pavel Petrovich Benkov
(1879-1949)

Pavel Petrovich Benkov 1879-yilda Qozon shahrida tugilgan. U dastlab Qozon badiiy bilim yurtida, keyinchalik Peterburg Badiiy akademiyasida, Parijda R. Julianning xususiy Akademiyasida ta’lim olgan. 1929-yilda Samarqand shahriga kelgach, 1930-yildan boshlab shahardagi Badiiy bilim yurtida o‘qituvchilik qilgan. Pavel Benkov turli janrlarda ijod qilishi - portret, manzara va maishiy janrlarning rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan. Uning “Buxorodagi oshxona”, “Xivalik qiz”, “Minorayi Kalon”, "Dugonalar", “Dutorchi qiz”, “Ko‘cha”, “Registondagi choyxona”, “Rassom ayol portreti”, “Buxoro ko‘chalari” asarlari yurtimizning go‘zal va betakror tabiatini, manzarasini ifodalovchi asarlardan hisolanadi.

U S. Kovalevskaya, L. Abdullayev, A. Abdullayev, R. Ahmedov, Y. Yelizarov, A. Roziqov, A. Haydarov va yana boshqa o'zbek rassomlariga ustozlik qildi. Pavel Benkovning bir qancha asarlari Moskva, Qozon, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Nukus va boshqa shaharlarning muzeylarida, shuningdek, Rossiya, Yevropaning ko'pgina davlatlari hamda O'zbekistonning xususiy kolleksiyalarida saqlanib keladi.



Xivalik qiz



Suv sotuvchi

O'zbekiston xalq rassomi unvoni va "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni sohibi Rahim Ahmedov 1921-yilda Toshkentda tug'ilgan. U Toshkent rassomlik maktabi (hozirgi P.Benkov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan rassomlik maktabi)da, so'ng SanktPeterburgdagi I. Repin nomidagi Rassomlik, haykaltaroshlik va me'morlik institutida tahsil olgan. Rassom asarlarida oddiy dehqonlar, cho'ponlar, qishloq ayollari va atoqli san'at arboblarning qiyofalarini tasvirladi. Uning ilk ishlari qatoridan "Cho'pon yigit", "Xalq sozandasi", "Surxondaryolik qiz" va boshqa asarlar o'rin olgan. Rassomning birgina chizgan "Ona o'ylari" portretida onaning ichki kechinmalari, his-tuyg'ulari ishonarli ifodalangan. Rahim Ahmedov portret, naturmort, manzaralarida asarlar ishlagan bo'lib, uning "Bahor ayyomida", "Naturmort", "Ayol portreti", "Bahor", "Rassom Salimjonova portreti", "Birinchi maosh", "Tushki dam olish", "Tong. Onalik" va shu kabi asarlarida xalqimizning hayoti, turmush tarzi, bepoyon mamlakatimizning go'zal tabiat manzaralari nihoyatda nafis, latofatli, yorqin bo'yoqlarda did bilan tasvirlangan. Musavvir ijodida manzara janridagi asarlar ham alohida o'ringa ega bo'lib, uncha katta bo'lmagan manzara suratlarida tabiat go'zalligini chiroyli tarzda yoritib bera olgan. Uning birgina "Qish" asarini tomosha qilgan kishida tabiatga bo'lgan mehr yanada ortadi. Rahim Ahmedov asarlari Moskvadagi Tretyakov galereyasi hamda O'zbekiston Davlat san'at muzeyida saqlanmoqda.

III. Mustahkamlash:

1. O'zbek rassomlaridan kimlarni bilasiz?
2. Ularning asarlari tasviriy san'atning qaysi janrida ishlangan?

IV. Baholash: to'garak a'zolarini yutuq va kamchilliklarini muxokama qilish, mashg'ulotda faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantirish.

V. Uyga vazifa: O'zingiz yoqtirgan rassom asarlaridan nusxa ko'chirishga harakat qilib ko'ring.

O'IBDO': _____

(imzo)

(sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Naqsh namunasidan nusxa ko‘chirish.

Ta’limiy maqsad: tasviriy san’atning ifodaviy vositalari haqida umumiy tushuncha berish.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarga ahloqiy tarbiya berish va tasviriy san’atga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otish, tasviriy san’atning ifodaviy vositalari sifatida rangtasvirda rang, surtma, chiziq, rang dog‘lari, rangdor va yorug‘lik kontrastlari haqida tushuncha berish, grafikada chiziq, shtrix, kontur, tus, oq-qora dog‘lardan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: chizish ko‘nikmava malakasini rivojlantirish, o‘quvchilarning badiiy ijodiy qobiliyatlari, badiiy - estetik didlarini o‘stirish, tasviriy malakalarini va mantiqiy fikrlash qobiliyatini oshirish.

Mashg‘ulot metodi: tushuntirish, savol-javob, suhbat, amaliy, yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

Jihozi: darslik, tasviriy san’at mavzuga doir ko‘rgazmalar, rasmlar, qalamlar, proyektor, tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Kommunikativ kompetensiya:

jamoa bilan ishlashda uning fikrini qo‘llab-quvvatlash.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

axborot manbalaridan (audio-video yozuv, kompyuter) foydalanish.

I. Tashkiliy qism: dars uchun yetarli miqdorda zarur ashyolar hozirlanadi.

Doskaga dars mavzusi va tegishli ma’lumotlar yozib qo‘yiladi.


II. Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

Xalq hunarmandchiligi amaliy bezak san’atining barcha turlari naqqoshlik san’ati bilan bog‘liq bo‘lib, bu naqsh kompozitsiyalarining badiiy go‘zal va nafis bo‘lishida xizmat qiladi. O‘zbekistonning har bir viloyati va shaharlarining naqsh kompozitsiyalari bir-biridan ajralib turadi. Masalan, Toshkent, Xorazm, Farg‘ona, Samarqand, Buxoro shaharlari ustalarining ishlari, naqsh kompozitsiyalari, ulardagi elementlarning ishlatilishi, rang berilishidagi farqlari o‘ziga xos naqqoshlik maktablarini yaratdi. Xiva naqqoshlik maktabi naqshlari O‘zbekistonda shakllangan boshqa naqqoshlik maktablaridan tubdan farq qiladi. Bunda naqsh kompozitsiyasi murakkab shaklga ega bo‘lib, islamiy naqsh elementlari - novda,

marg‘ula, shkufta, barg, no‘xatgul, oddiy gullardan tashkil topadi. Naqshlarning umumiy rangi ko‘pincha havorang koloritda ishlanadi. Bunda rang turlari kam ishlatilsa ham, o‘ziga xos ko‘rkamlikka ega. Farg‘ona naqqoshlik maktabi bezaklarida girih, o‘simliksimon (islamiy) va gulli girih naqshlar qo‘llaniladi. Kompozitsiya simmetriya qoidasiga amal

qiladi. U boshqa naqqoshlik maktablaridan naqshlarining tabiatga juda yaqinligi, erkin ishlanishi, qaramaqarshi ranglardan foydalanganligi bilan farqlanadi. Farg‘ona naqsh elementlarida tabiatdagi gul, barg, g‘uncha va pista guli, anor, atirgul, majnuntol, bodomgul va boshqalarni ko‘rishimiz mumkin.



III.Mustahkamlash:

1. Naqsh elementlari deganda nimani tushunasiz?
2. Naqsh bo‘yashda qanday bo‘yoqlardan foydalaniladi?
3. Qaysi naqsh maktablarini bilasiz va ular bir-biridan qanday farq qiladi?

IV.Baholash: to‘garak a‘zolarini yutuq va kamchiliklarini muxokama qilish, mashg‘ulotda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘batlantirish.

V.Uyga vazifa: Aylana yoki to‘rtburchaklar ichiga naqsh kompozitsiyasini chizing. Chizgan kompozitsiyangizni mos ranglarga bo‘yang.

O‘IBDO‘: _____ (imzo) _____ (sana)

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o‘zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.

Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi

19 listdan iborat tasviriy san‘at fanidan 5-sinf IV chorak konspektini to‘loq holda olish uchun telegramdan yozing.




Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To‘lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabiye Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!
Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqqim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**